



Harflarni kattalashib borish tartibida o'qing.

to'slik lagyio'

Yashiringan so'z birikmasi haqida nima deya olasiz?



Do'stlik yo'lagi

(Hikoyat)

Bir shaharda ikki qo'shni yashar ekan. Qish kelib, qalin qor yog'a boshlabdi. Qo'shnilardan biri erta turib, darvozasi oldidagi qorni kurab, katta yo'l tomonga yo'lak ochibdi. Ishini tugatib qarasa, qo'shnisi darvozasi oldidan yo'lak ochib bo'lgan ekan. Shunda u: "Ertaga vaqtlaroq chiqib, birinchi bo'lib yo'lak ochib qo'yaman", deb ko'nglidan o'tkazibdi.

Tuni bilan yana qor yog'ibdi. Haligi odam qorni birinchi kuramoqchi bo'lib saharda turibdi-da, shosha-pisha ko'chaga chiqibdi. Ish boshlashdan oldin qo'shnisi tomonga qarabdi. Qarasa, qo'shnisining darvozasidan katta yo'l tomonga yo'lak ochib bo'lingan ekan. Qo'shnisining chaqqonligiga biroz g'ashi kelibdi va ertasiga yana ham ertaroq chiqishga ahd qilibdi. Tuni bilan yana qalin qor yog'ibdi. Haligi odam kun

yorishmasidan ko'chaga chiqib, shoshib ishni boshlabdi. Ish orasida qo'shnisi tarafga qarab qo'yibdi, biroq hech nima ko'rinmabdi. U birinchi bo'lganiga shubha qilmay ishni tugatibdi. Bu orada kun ham yorishibdi. So'ng qarasa, ne ko'z bilan ko'rsinki, qo'shnisining yo'lagi yana unikidan oldin tayyor bo'lgan ekan. "Axir, qo'shnim chiqqani yo'q-ku, qachon yo'lak ochishga ulgurdi ekan?" deb rosa o'ylabdi va buni uning o'zidan so'ramoqchi bo'libdi.

Shu kuni ko'chada qo'shnisini uchratib qolibdi va unga:



– Qo'shni, yo'lakni qachon ochib ulgurasiz, kechasi bilan uxlamasdan qor kurab chiqasizmi, deyman?! – deb so'rabdi. Qo'shnisi biroz o'ylanib turib:

– Men umuman qorni kuramayman. Yo'lak esa uyimga kelib-ketadigan do'stlarim tufayli ochilib qoladi, – deb javob beribdi.



1. Hikoyat qahramoni qo'shnisining qaysi ishi haqida o'yladi?
2. Nega qo'shnisining yo'lagi doimo ochiq bo'lar ekan?
3. Hikoyatga yana qanday sarlavha qo'yish mumkin?
4. Sizningcha qo'shnilardan qaysi birining tutgan yo'li to'g'ri? Nima uchun?
5. Ushbu hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?



- Matndan “qor” so'zi ishtirok etgan gaplarni topib o'qing.
- Qo'shnilarga ta'rif bering.
- Qo'shnining qaysi xususiyati yo'lakning ochilishiga sabab bo'lganini ayting.
- Shu xususiyatni ifodalovchi maqollardan misollar keltiring.




Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, yashiringan so'zlarni aniqlang. Maqolni o'qing va mazmunini izohlang.

	1	2	3	4	5
	Q	R	SH	F	A
	T	I	H	E	S
	N	M	U	V	Y

												
1	2	3		5	4	2	1	5	3	4	2	3

Bo'g'inlardan tez aytishni hosil qiling. Tez aytish musobaqasini o'tkazing.



Do'stlik haqida biror hikoya yoki ertak topib o'qing. Mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.